

ARAB TILSHUNOSLIGI

*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi
o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti,*

*Filologiya va tillarni o'qitish: xitoy tili
yo'nalishi 102-guruh talabasi*

Zokirjonova Guljahon Shoyadbek qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynobiddinova I.M

Annotatsiya: Ushbu tezis-maqolada qadimgi Arab tilshunosligining paydo bo'lishi, rivojlanishi, Qur'on tili va diniy matnlarining to'g'ri o'qilishi, shuningdek, jonli arab tili bilan klassik adabiy til o'rtasidagi farqlari va arab olimlarining tilshunoslikka bo'lgan qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar : Qur'on, Sibavayhiy, "Al-kitob", olimlar, Basra, grammatika

Annotation: This article discusses the emergence and development of ancient Arabic linguistics, the correct reading of the Qur'anic language and religious texts, as well as the differences between the living Arabic language and the classical literary language. It also highlights the views of Arab scholars on linguistics.

Keywords: Qur'an, Sibawayh, Al-Kitab, scholars, Basra, grammar.

Аннотация: В данной тезисной статье рассматриваются возникновение и развитие древней арабской лингвистики, правильное чтение языка Корана и религиозных текстов, а также различия между живым арабским языком и классическим литературным языком. Кроме того, освещаются взгляды арабских учёных на языкознание.

Ключевые слова: Коран, Сибавейхи, «Аль-Китаб», учёные, Басра, грамматика.

Qadimgi arab tilshunosligi musulmon Sharqining eng qadimgi ilmiy an'analaridan biri bo'lib, uning shakllanishi Arab xalifaligi hududlarining kengayishi, Qur'on matnining to'g'ri o'qilishi va talqiniga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek, jonli arab tili bilan klassik adabiy til o'rtasida yuzaga kelgan farqlarni bartaraf etish zaruriyati bilan uzviy bog'liqdir. Arab tilshunosligining ilk taraqqiyoti VII–VIII asrlarga to'g'ri keladi va bu davr arab tili grammatikasi, fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi hamda leksikografiyasining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Qur'on tili va diniy matnlarning to'g'ri talaffuz qilinishi masalasi arab olimlarini tilning fonetik xususiyatlarini chuqur o'rganishga, shevalar ta'siridan holi bo'lgan adabiy me'yorni ishlab chiqishga undadi. Arab tilshunosligining dastlabki markazlari sifatida Basra va Kufa shaharlarida shakllangan ilmiy maktablar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Basra maktabi grammatik qoidalarga qat'iy amal qiluvchi,

mantiqiy tahlilga asoslangan ilmiy yondashuvi bilan mashhur bo'lsa, Kufa maktabi ko'proq jonli so'zlashuv tilini, xalq shevalarini va real nutqni o'rganishga e'tibor qaratgan. Bu ikki maktabning bahs va fikr almashinuvi arab tilshunosligini yanada boyitgan va rivojlantirgan. Arab tilshunosligining yirik namoyandalaridan biri Xalil al-Farohidiy bo'lib, u arab tili tarixidagi ilk mukammal lug'atlardan biri – “Kitob al-‘Ayn”ni yaratdi. Ushbu asar nafaqat lug'atchilikning, balki fonetikaning ham poydevorini tashkil etdi. Xalil al-Farohidiyning shogirdi, arab grammatikasining eng yirik namoyandasi bo'lgan Sibavayh esa “Al-Kitob” asari bilan arab grammatikasining ilmiy asoslarini yaratdi. Uning asari fonetika, morfologiya va sintaksisga oid tizimli izohlar bilan boy bo'lib, o'z davrining eng mukammal grammatik qo'llanmasi sifatida e'tirof etilgan.

Qadimgi arab tilshunosligida fonetika masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Arablar tovushlarni unli va undoshlarga, ularning artikulyatsion va akustik belgilari asosida tasniflaganlar. Nutq a'zolarining ishtiroki, tovush hosil bo'lish jarayoni va tovushlarning ma'noni farqlashdagi roli batafsil o'rganilgan. Arab tilining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan uch undoshli ildiz (uzak) tizimi ham qadimgi tilshunoslar tomonidan chuqur ilmiy asoslangan. Arab grammatikasida morfologiya muhim o'rinni egalladi. Ismlar, fe'llar va harflarning grammatik xususiyatlari, ularning shakllanishi, zamon, nisbat, son va shaxs kategoriyalari, so'zlarning tasrifi va o'zgarish qonuniyatlari qadimiy manbalarda izchil bayon qilingan. Sintaksis bo'yicha esa arab olimlari gapning tuzilishini muftado (ega) va xabar (kesim) atamallari asosida sharhlaganlar. Gap bo'laklarining o'zaro munosabati, boshqaruv, moslashuv va bitishuv qonuniyatlari mukammal tizimga solingan.

Arab tilshunosligining eng rivojlangan sohalaridan biri leksikografiya – lug'atchilik bo'lib, bu borada ko'plab yirik asarlar yaratilgan. Xalil al-Farohidiy,

Abu Ubayda, Sag'oni, Feruzobodiy kabi olimlar tomonidan tuzilgan lug'atlar arab tilining boy imkoniyatlarini aks ettirgan. Ayniqsa, Feruzodobiyning “Komus” lug'ati keyingi asrlar lug'atchiligining rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Arab lug'atlari izohli, sinonimlar lug'ati, predmet lug'atlari, tarjima lug'atlari kabi turli kategoriyalarga bo'lingan bo'lib, ular Sharq va G'arb tilshunosligining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, kelib chiqishiga ko'ra yunon Abu-Abayda (770–837) noyob so'z va ibora, ifodalarning keng qamrovli lug'atini tuzadi. Bog'dodlik hind Sag'ani (1181–1252) 20 tomlik lug'at yaratadi va uni “To'lqinlar toshqini” deb nomlaydi. Misrlik ibn Mansur (1232–1311) katta hajmdagi salmoqli lug'at tuzib, uni “Arab tili” deb ataydi.

Qadimgi arab tilshunosligi nafaqat islom dunyosining ilmiy merosi, balki jahon lingvistik tafakkurining rivojlanishida ham muhim o'rin egallaydi. Arab grammatikasi va leksikografiyasi Sharq, jumladan, Eron, Turkiya, Markaziy Osiyo tillarining grammatik an'analari shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa,

Andalusiya orqali Yevropa tilshunosligiga ham kirib borgan. Basra va Kufa maktablari yaratgan ilmiy meros hozirgi zamon tilshunosligining ko'plab yo'nalishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нурмонов А . Танланган асарлар. - Тошкент: Академнашр, 2012.
2. Orinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent: Oltin kitob, 2022.
3. Расулов Р . Умумий тилшунослик. Дарслик. - Тошкент , 2013. 4. arxiv.uz